



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI  
NAMANGAN SHAHAR HOKIMINING  
QARORI**

Namangan shahri, Xurriyat ko'chasi, 66-uy

2023 - yil 15 - noyabr

433-6-91-Q/23

Namangan shahar hokimligi

**Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining navbatdagi ellik ikkinchi  
sessiyasini chaqirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining  
17-moddasiga muvofiq,

**QAROR QILAMAN:**

**I.** Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining navbatdagi ellik ikkinchi  
sessiyasi 2023-yilning 28-noyabr kuni Namangan shahrida chaqirilsin.

**II.** Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining navbatdagi ellik ikkinchi  
sessiyasi kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

**1.** Namangan shahridagi kommunal xizmat ko‘rsatish hamda ijtimoiy soha  
tashkilotlarining kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati to‘g‘risida.

**2.** Namangan shahrida, O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar  
to‘g‘risida” hamda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunlarining ijrosi,  
shuningdek Namangan shahrida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish  
ishlarining ahvoli to‘g‘risida.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Namangan shahridagi Xalq  
qabulxonasi mudirining 2023-yil III-chorak davomida sektorlar va hududdagi  
tashkilot rahbarlarining murojaatlar bilan ishlash holati hamda hokim  
yordamchilari faoliyati to‘g‘risidagi axboroti.

**4.** Sud idolarining 2023-yil III-chorak davomidagi faoliylari bo‘yicha va  
Namangan shahar adliya bo‘limining norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash  
amaliyotini o‘rganish natijalari to‘g‘risida rahbarlarining axborotlari hamda

Namangan shahar ichki ishlari organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘ining 2023-yil III-chorak davomidagi faoliyati yuzasidan hisoboti.

**5.** Namangan shahrida 2023-yil III-chorak davomida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan to‘g‘risida Namangan shahar IIO FMB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining hisoboti to‘g‘risida.

**6.** Namangan shahar mahalliy budgeti 2023-yil 9 oyi yakuni bilan daromadlari va xarajatlarining ijrosi haqida.

**7.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalg qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan, hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4804сон qarorini ijrosi yuzasidan Namangan shahrida yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlari to‘g‘risida Namangan shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘ining hisoboti.

**8.** Namangan shahrida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturining ijrosi, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlari to‘g‘risida.

**9.** Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’milangan oilalarga “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan moddiy yordam ajratish to‘g‘risida.

**10.** O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi (Gender tenglik) va “Xotin-qizlarni tazyiqilar va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlarining Namangan shahrida ijrosi to‘g‘risida.

**11.** “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yil davlat dasturi doirasida Namangan shahridagi maktablarda ta’lim sifatini hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini yanada oshirish, sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlari to‘g‘risida.

**12.** Namangan shahar Tibbiyot birlashmasining sog‘lijni saqlash sohasida olib borilayotgan ishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 11-noyabrdagi “Ahолига tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash va sog‘lijni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga oid qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-6-son qarori ijrosi to‘g‘risida.

**13.** 2023-yilning III-choragida Namangan shahridagi sektorlarda hududlarni kompleks iqtisodiy - ijtimoiy rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda IV-chorakda bajariladigan vazifalar “Yo‘l xaritalari” to‘g‘risida.

**14.** Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining sessiyadan sessiyagacha bo‘lgan davr ichida qabul qilingan qarorlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

**15.** Boshqa masalalar.

**Shahar hokimi**



**G‘.Djamalov**